MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



"BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI"

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-TEXNIK ANJUMAN TO‘PLAMI





28-29-MART
2025-YIL

doi

Google Scholar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

RESPUBLIKA ILMIY ANJUMANINING TEZISLAR TO‘PLAMI

28-29 mart 2025 y

***

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ДЖИЗАКСКИЙ ФИЛИАЛ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

СБОРНИК ТЕЗИСОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

«ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ БИОТЕХНОЛОГИЙ»

28-29 марта 2025 г.

JIZZAX – 2025

7. Mustafakulov M. et al. Human growth hormone produced with recombinant DNA technology //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 130. – C. 04009.

POLIZ EKINLARI KASALLIKLARI: TURLARI VA TARQALISH OMILLARI

Akmalova M.A., Mamatkulova I.E.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
akmalovam96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda poliz ekinlarining asosiy kasalliklari va ularning tarqalish omillari o‘rganiladi. Kasalliklarning turlari, qo‘zg‘atuvchilari hamda ularga ta’sir etuvchi ekologik va agrotexnik omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Fuzarioz vilt, bakterioz kasalligi, fomoz kasalligi, kartoshka, iqlim, immun tizim, bakterial nekroz.

Kirish. Kasalliklarning tarqalishi bir necha omillarga bog‘liq. Iqlim, tuproq holati, zararkunandalar va o‘simliklarning immun tizimining zaifligi kasalliklarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Iqlimning issiq va nam bo‘lishi zamburug‘lar va bakteriyalar uchun ideal sharoit yaratadi. Tuproqning tuzilishi va uning unumdorligi ham kasalliklar rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Tuzli yoki notekis o‘g‘itlangan tuproqlarda kasalliklar tez tarqaladi. Bakterial kasalliklar poliz ekinlarida ham muhim ahamiyatga ega. Pomidorlarda bakterial nekroz (*Clavibacter michiganensis*) ildizlar va barglarga zarar yetkazadi, bu esa o‘simliklarni susaytiradi.Bodringda bakterial yaralar (*Pseudomonas syringae*) barglar va mevalarda qora dog‘lar hosil qiladi va ularning chirishiga olib keladi [2,4]. Bodring fuzarioz so‘lishi (fuzarioz vilt)ni *Fusarium oxysporum f.sp. cucumerinum gifomitset* zamburug‘i qo‘zg‘atadi.Patogen tuproqda ekilgan bodring (va qovun) urug‘larini, unib chiqqan maysalarni hamda tuproq yuzasiga chiqqan yosh o‘simliklarni chiritadi. U ayniqsa ko‘chat ekilgan kundan boshlab 3–4 hafta ichida katta xavf tug‘diradi.Vilt ochiq dalalarda va ayniqsa issiqxonalarda dunyoning barcha mintaqalarida keng tarqalgan [1]. Bakterioz kasalligini *Pseudomonas lachrymans* bakteriyasi qo‘zg‘atadi. Ushbu kasallik o‘simlikning butun yer ustki qismini va mevalarini zararlaydi.Urug‘pallalarda jigar rangli dog‘lar paydo bo‘ladi.Mevalardagi dog‘lar yog‘simon, yaltiroq va doira shaklida bo‘lib, botib kirgan holda namoyon bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan bu dog‘lar kattalashib, yumshab chirib ketadi. Barglar quriydi, poyalar esa chiriydi. Kasallik qo‘zg‘atuvchi bakteriyalar o‘simlik qoldiqlari va urug‘larda qishlab, kelgusi mavsumda yana kasallik tarqalishiga sabab bo‘ladi[1].Fomoz (quruq chirish)

kasalligi:Bu kasallik karamning urug‘pallasi, barglari, o‘zagi va tomirlarida och kulrang yoki qo‘ng‘ir dog‘larning paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. Dog‘larning ustida esa qora nuqtalar hosil bo‘ladi. Kasallik alomatlari ko‘rinishi jihatdan qora songa o‘xshab ketadi. Fomoz rivojlanishiga havo namligining yuqori bo‘lishi va iliq harorat sabab bo‘ladi [2]. Kartoshka tugunaklarini urchuqlanishi (gotika) kasalligi.Bu kasallikni kartoshka tugunagini urchuqlaydigan *viroid* (VVKK-KTUV) qo‘zg‘atadi. Kasallik kontakt yo‘li bilan yuqadi. Kasallangan o‘simlikning hosildorligi 85 foizgacha kamayadi. Bunday o‘simliklar past bo‘yli bo‘lib, tupdagi poyalari soni qisqaradi. Yon, ayniqsa, pastki shoxlari kuchli rivojlanadi [3,5].

Xulosa: O‘zbekistonda poliz ekinlari bakterial, zamburug‘li, virusli va nematodli kasalliklarga moyil. Bakterial vilt va dog‘lanish o‘simliklarning so‘lishiga sabab bo‘ladi. Zamburug‘li kasalliklardan fuzarioz vilt, antraknoz va askoxit hosildorlikni pasaytiradi. Mozaika va sariq jingalak viruslari barglarni zararlaydi, ildiz tugun nematodasi esa ildiz tizimini ishdan chiqaradi. Bu kasalliklar poliz ekinlariga katta zarar yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.O‘.Mahmatmurodov, N.T.Nishonov, M.Q.Eshmurodova, K.F.Sharifov. Fitopatologiya. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. 2021 yil. – 190b
2. To’raboyev.M. B, Erkinova.M. Sh” Karam o’simligining umumiy kasalliklari va unga qarshi kurash choralari” Journal of new century innovations, lume–18_Issue-2_December_2022 .51b
3. O.G. Axmedov. O.B. Yunusov,” Kartoshkada uchraydigan kasallik va kasalliklarga qarshi kurashish chor-tadbirlari” lume–18_Issue-2_December_2022.27b
4. Saidolimova.D. U, Tojiyeva.S. O, “Poliz ekinlarining zamburug’li kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari” , Central asian journal of multidisciplinary research and management studies,Volume 1, Issue 1, Feb.167b
5. A.V. Mahmudov O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova. Structure of local populations and phytocoenotic confinement of Elwendia persica in Turkestan Ridge, Uzbekistan. Biodiversitas. 2023/3., 1621-1628.